

O'zMMI DMning hududiy filiallari

- Qoraqolpog'iston Respublikasi filiali
- Andijon filiali
- Buxoro filiali
- Jizzax filiali
- Qashqadaryo filiali
- Navoiy filiali
- Namangan filiali
- Samarqand filiali
- Surxondaryo filiali
- Sirdaryo filiali
- Farg'lona filiali
- Xorazm filiali
- Qo'qon filiali
- Olmaliq filiali
- Chirchiq filiali



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH “KOMPLAYNS NAZORAT” XIZMATI



ESLATMA:
Agarda Sizdan elektron
to'lovdan tashqari ortiqcha pul
talab qilinsa quyidagi aloqa
kanallari orqali biz bilan
bog'laning.

Ishonch telefon raqami: 71 202-00-11
ichki raqam 1240

Elektron pochta manzili:
metrolog@nim.uz

Telegram bot:

[@UzNim_korrupsiya_bot](#)

**XABAR BERING SHAXSINGIZ SIR
SAQLANADI.**




O'ZBEKISTON MILLIY METROLOGIYA INSTITUTI DAVLAT MUASSASI

Aholining kundalik hayotida
ko'p uchraydigan masalalar
yuzasidan suv, gaz va elektr
hisoblagichlarini metrologik
xizmat ko'rsatish bo'yicha

MA'LUMOT



AHOLI TOMONIDAN TEZ-TEZ BERILIB TURADIGAN SAVOLLARGA JAVOBLAR



• Hisoblagichimning qiyoslash muddati tugamoqda, hisoblagichni yechish va qiyoslovdan o'tkazish uchun qayerga murojaat qilishim kerak?

Vazirlar Mahkamasining 698-son qaroriga asosan, energo resurslarni (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni) hisobga olish uskunasi yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish bo'yicha Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qaror bo'yicha elektr, gaz, issiq va sovuq suv o'lchash vositalari O'zbekiston milliy metrologiya instituti tomonidan qiyoslashdan o'tkaziladi.



• Hisoblagichni qiyoslashdan o'tkazish uchun qanday yechib olsam va o'rnatam bo'ladi?

Hisoblagichlarni qiyoslashdan o'tkazish uchun yechib olish va qiyoslash ishlari yakunlangandan so'ng joyiga o'rnatish ishlari faqatgina ta'minotchi korxonalar tomonidan iste'molchi ishtirokida tegishli dalolatnoma tuzgan holda baiariladi.

Diqqat qiling, xonadon egasi uydagi o'lchash vosita (hisoblagich)larini yechib olish, metrologiya xizmatiga taqdim etish va qayta o'z o'rniga o'rnatish tashvishlaridan ozod qilingan. Barcha harakatlar iste'molchining birgina murojaati va belgilangan to'lovi asosida tegishli korxona va muassasalar



xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.



Aholiga yaratish qulaylik maqsadida murojaatlar bilan ishlash uchun metrologiya.nim.uz dasturi yaratilgan.



Ushbu dastur yordamida hisoblagichlar rasmiylashtirilgan qiyoslash guvohnomalar elektron holda saqlanadi.

**HISOBLAGICHLARNI
QIYOSLASHDAN O'TKAZISH
UCHUN QAYERGA VA
QANCHA TO'LOV QILINADI?**

VM ning 698-sonli qaroriga asosan to'lovlar Davlat xizmatlari markaziga electron tarzda to'lanadi va qo'shimcha to'lov undirilmaydi.